

UMUMTURKIY MILLATLAR RIVOG'IDA O'G'UZ LAHJASINING TUTGAN O'RNI

Jurayeva Nazokat Gulmuradovna
Alfraganus universiteti professori,
Filol.f.n.

Annotasiya: O'g'uz tillari – turkiy tillar oilasining o'g'uz guruhiga mansub bir qancha o'lik hamda hozirgi iste'molda bo'lgan jonli tillar. Umuman, O'g'uz tillari 3 ta alohida guruhchalarga bo'linadi: 1) o'g'uz-turkman guruhchasiga X-XI asrlarda mavjud bo'lgan o'lik o'g'uz tili hamda hozirgi turkman tili va truxmen tili (Stavropol turkmanlarining tili) kiradi; 2) o'g'uz-bulg'or guruhchasi qadimiy bijanaklar va ularning tili hamda hozirgi gagauz tili va Bolqondagi bir qancha turkiy urug'lar (surg'uch, gajal, qaramanli, qizilbosh va boshqalar) tilini o'z ichiga oladi; 3) o'g'uz-saljuq guruhchasi esa qadimiy saljuq (XI-XIV asrlar), eski usmonli (XIV-XIX-asrlar) va eski ozarbayjon (XIV-XIX asrlar) singari o'lik tillarni hamda hozirgi ozarbayjon tili va turk tilini, shuningdek, qrim-tatar tilining janubiy lahjasini qamrab oladi.

Hozirgi O'g'uz tillari Orol-Kaspiy bo'ylaridan Bolqon yarim oroligacha bo'lgan ulkan hududda tarqalgan. O'g'uz tillarining barchasi uchun xos bo'lgan til xususiyatlari, asosan, fonetika sohasida bo'lib, bunga so'z boshidagi t, k, q undoshlarining jaranglilashuvi (ko'z > gyozi, til > dil, kelmak > galmak), so'z boshidagi ba'zi undoshlarning tushib qolishi (bo'lmoq > o'lmak, ho'kiz > o'kuz), ba'zi affikslar boshidagi g, g' undoshlarining tushib qolishi (kelgan > galan, olgan > alan) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. O'g'uz tillari boshqa guruhdagi turkiy tillardan, mas, qipchoq tillaridan leksika sohasida ham ancha-muncha farqlanadi.

Kalit so'zlar: *anatoliyalik grek, o'g'uz, qipchoq, Shosh, Ulli juz, skiflar, qirg'iz-qaysaqlar, polovetslar, kuznes tatarlari, Yoyiq, Emba, etnik guruh, Sariq uyg'urlar.*

Kirish. Bugungi kunda jahon tilshunoslik fanining tahlil jarayoni tillar o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqligini tadqiq qilmoqda. Tilshunoslik rivojlanishining hozirgi davr bosqichi ko'p qirrali bo'lganligi tufayli til hodisalarini tahlil qilish bo'yicha o'ziga xos yangicha yondashuvlarni o'z ichiga olgan holda tadqiq qilishni taqozo etmoqda. O'g'uz tili - turkiy

tillar oilasining o'g'uz tillari guruhiga mansub o'lik til; X-XI asrlarda mavjud bo'lgan o'g'uz (o'g'uz, to'qqiz o'g'uz, o'n o'g'uz) qabilalarining og'zaki so'zlashuv tili. O'g'uz tili haqidagi dastlabki ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchraydi. Jamoliddin ibn Muhannaning "Hilyat ulinson va xalibat ullison" ("Inson ziynati va til jozibasi", 13-asr oxiri) asarida ham O'g'uz tili xususiyatlari boshqa turkiy tillarga qiyoslab izohlanadi. Bu davrdagi O'g'uz tili o'z fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra qipchoq tillariga ancha yaqin, chunki qadimda qipchoq va o'g'uz tillari bitta - qipchoqo'g'uz tilidan paydo bo'lgan. X-XI asrlarda O'g'uz tili keyinchalik ajralib rivojlangan o'g'uzlar uchun asosiy til bo'lib qolgan: sharqiy (yoki asosiy) tarmoq o'g'uzlarida oxirgi davrlarda turkman va truxmen tillari; shimoliy tarmoq o'g'uzlarida ilk davrlarda qadimiy o'z va bijanak tillari, keyingi davrda gagauz tili; janubiy tarmoq o'g'uzlarida ilk davrlarda eski ozarbayjon, eski usmonli turk tillari, keyinchalik ozarbayjon, turk tillari, qrimtatar tilining janubiy lahjasi paydo bo'lgan. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi doirasidagi shevalar ham genetik jihatdan O'g'uz tiliga borib taqaladi. O'g'uz tili Orololdi, shimoliy Kaspiyoldi pasttekisligi mintaqalarida, Sirdaryo etaklarida tarqalgan bo'lgan. XI-X asrlarda O'g'uz davlatida muloqot tili hisoblangan; keyinchalik turk, ozarbayjon, turkman va boshqa ayrim tillar asosiga kirgan. O'g'uzlar o'z davlatchiligiga ega bo'lganlar, o'g'uz tili esa, G'aznaviylar davlati va Saljuklar sultonligida rasmiy til sifatida xizmat qilgan. Bir necha yillar davomida katta qiziqish hamda munozaralar bilan o'rganilib kelayotgan olamning lisoniy manzarasini obrazli hamda tasviriy ifodasini o'zida mujassam etgan sheva va lahjalar umumturkiy xalqlarning yashash tarzi, urf-odat va an'alarini, dini, kelib chiqish tarixi hamda madaniyatini o'zida qamrab olishi bilan qiziqarli.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligi va etnografiya fanida til va urug'lar tarixi, tillarning kelib chiqishi, sheva, dialekt va lahja, til va ma'naviyat, til va falsafa, til va adabiyot masalasiga doir ko'plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ma'lumki, umumturkiylar qatlamiga mansub o'zbek xalqining kelib chiqishi qadimiylikka daxldor bo'lib, uning tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. O'tgan tarixiy davrlar ichida o'zbek shevalarining to'xtovsiz taraqqiy etganligi manbalarda qayd etilgan.¹

¹ Bu konuda daha fazla bilgi için bk. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.: Fan. 1968. -B. 264; Fitrat A. Eng eski turk adabiyotining namunaları. - Toshkent-Samarqand, 1927. Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. -T.: Fan. 1968. -B. 44-45; Snesaryov G.P. Relikti domusul'manskix verovaniy i obryadov uzbekov Xorezma. -

Avvalo, uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlash uchun sheva, dialekt, lahja kabi terminlarning lugʻaviy va istilohiy maʼnolarini farqlash lozim. Bu boradagi dastlabki manba sifatida Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk”, Al-Masʼudiyning “Muruj az-zahb”, Ibn al-Asirning “Al-Kamil fi-t-tarix”, Abu Rayhon Beruniyning “Osor al boqea”, Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyotining namunalari”, G.P. Snegarevning “Relikti domusulʼmanskix verovaney i obryadov uzbekov Xorezma”, I. Jumaboevning “Oʻrta Osiyo etikasi tarixi ocherklari” M. Durdievning “Turkmeni” kabi qator lingvistik, adabiyotshunoslik va tarixiy asarlarni koʻrsatish mumkin (Fitret, 1927, s. 25).

Manbalarda qayd etilishicha, umumturkiy qavmlar ichida oʻgʻuzlar katta mavqega ega yirik qabilalardan biri boʻlgan. VIII asrda turkiy xoqonlik qulagandan soʻng uning oʻrnini uygʻurlar bilan qoraxoniylar egallaydi. Shundan keyin oʻgʻuzlarning koʻpgina qavmlari kunchiqardan gʻarbga tomon siljiydi. Koʻpchilik oʻgʻuz qavmlari boʻlinib, ularning bir qismi Oʻrta Osiyoga keladi. Oʻgʻuzlarning asosiy koʻpchiligi Orolboʻyi dashtlarida yashab, ular boshchiligida bir necha qabila urugʻlari tarkib topadi. IX asrda oʻgʻuzlarning koʻpchilik qismi Sirdaryoning oʻrta va quyi oqimida hamda Ustyurtning janubga choʻzilgan choʻllarida, Emba va Yoyiq oraligʻida yashagan. Oʻgʻuzlarning bir qismi – oʻgʻuz saljuqlar Eron hamda Kichik Osiyo orqali oʻtib, dastlab, Saljuqlar qavmini, soʻngra Usmon imperiyasini tuzadi. Boshqa bir qismi Ural hamda Volga daryolaridan oʻtib, Sharqiy Yevropaga ketgan. Oʻgʻuzlar hozirgi ozarbayjon, gagauz, turk hamda turkman xalqlarining shakllanishda, shuningdek, Xorazm oʻzbeklari va qoraqalpoqlarning etnogenizida ham muayyan rol oʻynagan.

Oʻrta Osiyoning oʻtroq dehqonchilik hududlarini oʻrab turuvchi togʻli, choʻl va dasht hududlarda yashagan qavmlar orasida oʻgʻuz (gʻuz), qarluq, qipchoq, toʻqqizgʻuz, qumiq va boshqa turkiy urugʻlar katta oʻrin tutganlar. Arab manbalarida eʼtirof etilishicha, IX–X asrlarda Movarounnahr va Xorazmning shimoliy va shimoli-gʻarbiy hududlarida asosan oʻgʻuz qabilalari yashaganlar. Ularning tillari turkiy boʻlib, oʻz

M.:Nauka. S.88; Jumaboev I. Oʻrta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. – T.: Oʻzbekiston. – B.24-38; Durdiev M. Turkmeni. Ashgabat. Xarp, 1991.S.9; Sharaf al-zaman Tahir al-Marvazi on China, The Turks and India. Arabic text (circa A.D. 1120) with an English translation and commentary by V. Minorsky. The Royal Asiatic Society. London. 1942. P. 29; Baskakov N. A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazikov.M.,1969.S.189; Shukurov Sh. Istoriya razvitiya glagolʼnix form uzbekskogo yazika.–Tashkent. 1966. S.102. Sarimsoqov B.Epik janrlar diffuziyasi//Oʻzbek folʼklorining epik janrlari. – T.:Fan. – B.119; Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent,2014. 95-bet.

ittifoqlariga bir qator urug' va qabila vakillarini birlashtirganlar. Ular dastlab Issiqko'l bo'ylarida va Somoniylar O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan davrlarda Xorazmning shimoliy va g'arbiy chegaralarida, shuningdek, Sirdaryoning quyi havzasida yashaganlar. IX–X asrlarda o'g'uzlar Orol dengizidan Kaspiyga qadar "O'g'uz cho'li" deb atalgan hududlarda yashaganlar.(Abu Rayhon Beruniy,1968,45.)

O'g'uzlar O'rta Osiyoga IX asrda kirib kelganlar. Bu davrda ular Sirdaryoning quyi va o'rta oqimlarida, Ustyurtning shimoliy Emba va Yoyiq oralig'ida yashaganlar. Keyinchalik o'g'uz nomi bir qator o'g'uz bo'lmagan xalqlarga nisbatan tarqagan. Ayrim boshqa qabilalar o'g'uzlar ittifoqiga kirgan bo'lsalar-da, o'z tillarini va o'ziga xosliklarini saqlab qolganlar. M. Koshg'ariyning ma'lumoticha, ayrim o'g'uz qabilalari, masalan, qoylar o'zlarining maxsus lisoniy belgilarini saqlab qolganlar.O'g'uzlar ko'chmanchi turkiy qabilalar konfederatsiyasini tashkil etganlar, ularning kelib chiqishi Oltoy va Janubiy Sibir bilan bog'liq (Durdiev M, 1991,10). Al-Marvaziyning yozishicha, g'uzlar musulmon mamlakatlar bilan aloqa o'rnatganlaridan so'ng ularning ayrimlari islomni qabul qilganlar va ular turkmonlar deb atalganlar. Keyinchalik ular va islom dinini qabul qilmaganlar o'rtasida urush boshlangan va oxir-oqibat musulmonlar ustunlikka erisha boshlaganlar, dinsizlarni siqib chiqarganlar. Dinsizlar Xorazmni tark etib, bajanaklar yeriga borib joylashganlar. Turkmonlar esa juda islom mamlakatlari bo'ylab tarqab ketganlar va ular o'zlarining ijobiy xususiyatlarini namoyon etib, bu hududlarning juda kattagina qismida hukmdor va sultonlarga aylanganlar (V. Minorsky,1942, 37.).O'g'uzlarning katta qismi hozirgi Turkmaniston hududida yashovchi xalqlarni zabt etib, ularga o'zlarining turkiy tillarini qabul qildirganlar va ular bu etnik qatlamda yetakchi siyosiy o'rinni egallab, o'z genealogiyalarini yuqori mavqega olib chiqqanlar. Ammo turkmanlarni o'g'uzlar bilan aynanlashtirish ham noto'g'ridir. Hozircha bunga fanda biror bir isbot topilmagan. O'g'uzlarni turkman xalqi etnogenezi shakllanish jarayonidagi massagetlar, daxlar, parfiyaliklar, marg'iyonaliklar, eftaliylar, olonlar va oslar bilan bir qatordagi muhim bir element sifatida olish mumkin. Shunday bo'lsa-da, ularning turkmanlarning etnik shakllanishidagi rolini pasaytirib ko'rsatish ham maqsadga muvofiq emas. O'g'uzlar 24 qabila nomlarining 8 tasi hozirgi turkmanlar qabilaviy tarkibida va 10 tasi turkmanlarning urug' nomlarida saqlanib qolgan (Дурдиев М, 1991,41.). Bu yerda millionlab turkiy oilalarni Yaqin va O'rta Sharq tomon yetaklagan Saljuqiylar davrining ahamiyatiga to'g'ri

baho berish kerak. Yaqin va O'rta Sharqqa migratsiya qilgan turkiylar ichida o'g'uz-saljuq elementlari dominant edi. O'g'uz qabilalari ichida qiniqlar shubhasiz katta o'rin egallaganlar. Hujjatlarda shuningdek, afshor (avshor), solur, boyundur, jabnilarning ham katta ta'sirli urug'lar ekanligi aytiladi (Sümer F, 1997, 7.) O'g'uzlarning hammasi ham ko'chmanchi bo'lmaganlar. Ularning kattagina qismi Sirdaryo quyi va o'rta oqimlaridagi shahar va qishloqlarda o'troq hayot kechirganlar. Manbalarda o'g'uzlar bir qator boshqa turkiy urug'lar bilan Yangikent, Jand, Ribotot, Ashnos, Korachuq, Sig'noq, Sabron, O'zkend, Yassi, Sutkand, Qarnoq kabi shaharlarda yashaganliklari aytiladi (Sümer F, 1997, 12.).

Avfiy o'zining "Jome' ul-hikoyat" asarida" yozishicha, o'g'uzlarning bir qismini g'uz, bir qismini ayg'urlar derlar. Ularning bir qismi Xorazm yerlarida yashaydilar. Ularning o'lkalarida islom bayrog'i o'rnatilgach, musulmon bo'lganlar. Ular islomni joriy etdilar. Keyin bularga kofir askari hujum qildi. Ularni o'z yerlaridan siqib chiqardilar, ular islom shaharlariga qarab yurdilar. Bularni islom o'lkalarida turklar deb atadilar (turkon). Islom o'lkalarida kuch-qudrat va hokimiyatga erishdilar. Chag'ri tegin hukmdor bo'lganda isyon ko'tardilar. Askarlari hukmdor bo'lib jahonni zabt etdilar (Şeşen R, 2001, 87.). M. Koshg'ariy faqatgina o'g'uzlarning mayda urug'larini ham yozgan, chunki uning zamonida o'g'uzlarning mavqei ancha kuchli bo'lgan. Uning yozishicha, o'g'uz turklarning bir qabilasidir. Turkmanlar ularga kiradi. Ular 22 urug'dirlar. Har bir jamoaning hayvon suratidagi alohida tamg'asi bor. Ular bir-birlarini shu tamg'alar orqali taniydilar. Bu qabilalar qiniqlar, koyig'lar, boyondurlar, ipolar, solg'urlar, afshorlar, begtililar, bekduzlar, boyotlar, yozg'irlar, aymurlar, qorabuluqlar, olqabuluqlar, ig'dorlar, yudigerlar, tutirqalar, ulayundulug'lar, tukarlar, bijanaklar, juvoldorlar, jabnilar, jaruqlug'lar (Şeşen R, 2001, 87.). O'g'uzlarning katta qismi XII asrda Xuroson va Yaqin Sharqqa qarab ko'chgan bo'lsalar-da, ularning kichik jamoalari avvalgi makonlarida ya'ni, Xorazm atroflari va hozirgi Janubiy Qozog'iston hududida qolganlar. Jumladan, al-Mas'udiyning yozishicha, Man qishlag' – o'g'uz o'lkasidagi bir joy nomi (Nasirillayeva N., 2022, 107.). O'g'uzlar islomga kirganlaridan keyin ot go'shti tanovul qilishni to'xtatganlar, bunga sabab hanafiy mazhabi tomonidan ot go'shti makruh etilgani edi. O'g'uzlarda islomdan avvalgi din odamlari qom (shomon) deb atalgan va aslida shomon so'zi tunguscha bo'lib, turkiylarda deyarli qo'llanilmagan. Ibn Fazlon o'g'uzlar xudoni tangri deyishlarini xabar bergan (Ковалевский А.П., 1956, 25.). Shuningdek,

o'g'uzlarda xudoga nisbatan Boyot va Ug'an so'zlari ham qo'llanilgan. Qomlar ota unvoni bilan atalganlar. Masalan: Qo'rqut ota, Zangi ota kabi. U zamonlarda otani qang' deganlar. XIII asrga kelib esa ota o'rniga bobo kalimasi ham qo'llanila boshlaydi(Sümer F, 1997, 12). Turkiy qabilalarning shomonlarning ilohiy kuch sohibi bo'lib, noyob qobiliyatlarga ega ekanliklariga ishonganlar va ularning oldida katta bir qo'rquv va hurmat hissini tuyganlar. XI asrga kelib o'g'uzlarning Qora dengiz bo'ylariga ko'chgan kichik bir qismidan boshqa hammalari musulmon edilar. Quyi Sayhun (Sirdaryo) bo'ylarida IX asrda o'g'uzlarning katta bir davlatlari bo'lgan va qo'shni davlatlar ularning kuchidan hayiqqanlar. Abbosiy xalifasi Mu'tasimning Sharqiy viloyatlar bo'yicha noibi Abdulloh b. Tohir 838 yil o'g'uzlarga qarshi urushga otlangani ham ularning o'sha paytdagi kuch-qudratidan dalolat beradi (Sümer F, 1997, 12). O'g'uzlarning yetakchilari *yabg'u* deb atalgan. Yabg'ularning noiblari *ko'l erkin* deb atalganlar. Bu eski bir unvon hisoblangan va G'arbiy Ko'k Turk imperatorligi davrida Issiqko'lning g'arbidagi Chuy va Talas daryolari orasida yashagan besh qabila shu unvonga ega bo'lganlar. O'g'uzlarning fol'klor janrlarida ularning avvalgi vatanlari Issiqko'l bo'lganligi ham aytiladi. Ko'lerkindan so'ngra suboshilar turgan (o'rda qo'mondoni, eski turkchada su o'rda, qo'shin ma'nosida kelgan).Yabg'ularning chovushlari (yovarlar, tashrifotchilar) va bekchilari (xos qo'riqchilari) bo'lgan. Ularning muhrdorlari tug'rak deb atalgan(Sümer F, 1997, 12). 536- yili Sulton Sanjarning qo'shini ichida qarluqlar (qarg'allar) va turk-g'uzlar degan turklarning urug'lari bor edi. G'uzlar ham ikkiga bo'linganlar, ucho'q va bo'zo'q (buruq) (ИБН аль-Асир,2006, 67,). O'g'uz-yabg'u davlatida, shuningdek, tarxon, yinol, yinonch kabi unvonlarga ega bo'lgan aslzodalar ham bo'lgan. Yana bilga, ulug', qutlug', alp kabi unvonlar ham uchraydi. Yabg'ularning davlat muhrlari bir yoy va uch o'qdan iborat edi. Aslida yoy 24 urug'dan bo'zo'qlarning, uch o'q esa ucho'qlarning timsoli bo'lgan (Sümer F, 1997,12).O'g'uzlarning shimoliy chegaralarida qipchoqlar yashaganlar. Bajanoqlar esa qipchoqlarga qo'shni bo'lganlar. Shuningdek, qipchoqlarning sharqiy, o'g'uzlarning shimoli-sharqiy tomonida kimoklar yashaganlar. Farg'ona va Shoshning o'zida ham, atrof mintaqalarida ham turkiy elatlar yashaganlar. Masalan, Shosh va Farg'ona chegaralarida qarluqlar va ularga ittifoqdosh bo'lgan chigil, yag'mo, xazlaj, arg'u, tuxsi va boshqalar yashaganlar.Qoraxoniylar Arslonxonning turkiy g'uzlardan ham qo'shini bo'lgan. Qoraxoniylar qo'shini vaqti-vaqti bilan Xurosonga talonchilik yurishlari qilib turardilar.

Zikr etilgan turkiy g'uzlar ikki toifadan iborat edilar. Ulardan biri achaq bo'lib, ularning amirlari Tug'i ibn Dodbek edi. Boshqa qabila baroq deb atalib, amirlari Qarg'ut ibn Abd al-Hamid edi. Ibn al-Asirning ma'lumoticha, 383 yili Shihob ad-davla Xorun ibn Sulaymon Iloq (Bug'roxon at-Turkiy nomi bilan mashhur bo'lgan) Buxoro hukmdoriga aylandi. Koshg'ar va Bolosog'un ham Xitoyga qadar uning mulki edi(Ибн аль-Асир,2006, 155.) Bug'roxon Buxoroni tark etganda uning qoldirib ketgan qo'shini mahalliy aholi tomonidan talandi. Nuh ibn Mansur Buxoroni qo'lga kiritib, unda joylashib olganidan so'ng, Bug'roxon og'ir kasalga chalindi. Bu talonchilikda mahalliy aholiga turk g'uzlar yordam berdilar(Ибн аль-Асир,2006, 158.). Turk o'g'uzlar u bilan birlashib, Bug'roxonning jangchilarini qirib tashladilar va mulklarini taladilar. Bug'roxon yo'lda vafot etdi. Bug'roxon vafot etgach, uning xalqi o'z qo'rg'onlariga tarqab ketdi. Bug'roxon xudojo'y kishi bo'lib, shundayligacha umrining oxirigacha yashadi. Bug'roxon vafot etgacha Ilig'xon turk dunyosining podshosiga aylandi(Материалы по истории тюркских народов Центральной Азии,2003,106.). Bu yerda Buxoro atroflarida ham turk g'uzlar yashaganliklari haqidagi ma'lumot diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, til mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo'lsa-da, u milliy shaklda namoyon bo'ladi. Zero, u o'zida millat va elatning ruhini ifodalaydi. Milliylikdan xoli tuyg'uning ta'sir kuchi bo'lmaganidek, milliy til va millat ruhidan ayro tafakkur ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra, jahondagi har bir xalq tillarining yashovchanligi milliy ruh ifodasi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etilishi lozim. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar muayyan millat madaniy-estetik tafakkurining boshqa hech bir xalq tilshunosligi va badiiy adabiyotida uchramaydigan o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ilmiy tadqiqotlar jarayoniga tadbiq etish va rivojlantirish imkonini berishi jihatidan ham qimmatlidir.

Tahlil va natijalar. Turkiy tillar oilasiga mansub turkiy xalqlar haqida ma'lumotga ega bo'lishning ahamiyati katta. Endi ularning har biri haqida alohida to'xtalamiz.

Avarlar – o'rta asrda yashagan turkiy xalq bo'lib, ular Karpat havzasida (hozirgi Dunay orti, Markaziy Vengriya, Transilvaniya) ikki yarim asr davomida katta siyosiy kuchga ega bo'lgan hamda o'zining Avar xoqonligini vujudga keltirgan xalqdir. Xoqonlik IX asr boshlarida franklar tomonidan qulatilgach, avarlar boshqa xalqlarga aralashib ketadi. Avarlar turkiycha par-apurim, Vizantiya manbalarida avarlar, rus

manbalarida obrlar deb nomlangan. Markaziy Osiyodan chiqqan qabilalar bilan juan-juanlar nomi bilan ma'lum bo'lgan, degan taxmin paydo bo'ladi. Boshqa taxminlarga ko'ra, ular O'rta Osiyodan chiqqan. Ammo ularning kelib chiqishi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. O'tgan asr boshlarida olimlar orasida dog'istonlik avarlar bilan «yo'q bo'lib ketgan» avarlarning qarindoshi bo'lishi mumkinligi to'g'risida bahs-munozaralar bo'ldi. Qadimgi avarlarning tili turkiy, dog'istonlik avarlar tili esa alohida kavkaz tili hisoblangan. Dog'istonlik avarlarning qadimgi nomi maarulal bo'lib, bu ikki xalqning qarindoshligini rad etadi (Netenmanlayif, 1968, s.).

Ozərbayjonlar – Kavkazda yashovchi turkiy xalqlarning biri bo'lib, ular Ozarbayjon Respublikasining tub aholisini tashkil qiladi. Bundan tashqari, Gruziya, Armaniston, Dog'iston hamda 7 mln. ozarbayjon Eronning shimolida, shuningdek, boshqa mamlakatlarda ham istiqomat qiladilar. Ozarbayjonlarning umumiy soni 13 mln. Dini – musulmon (shiytlar).

Ozarbayjonlarning kelib chiqishida eramizgacha bo'lgan IV asrdagi Janubiy Ozarbayjonda tuzilgan kichik Midiya yoki Atropatena mamlakati aholisi va Ozarbayjonning shimolida paydo bo'lgan alban qabilasi urug'i, keyinchalik esa Kavkaz Albaniyasining mahalliy aholisi tarkibiy qism rolini o'tagan. So'ngra bu yerlarga har xil eroniy (kimmeriylar, skiflar) va turkiy qabilalar (xunlar, bulg'orlar, xazarlar, pecheneglar) kelib, mahalliy aholi bilan chatishadi. Shundan keyingi davrlarda (XI–XIII asrlar) turkiy qabilalar (ayniqsa, o'g'uz-saljuqlar) ko'plab kelib, ular ozarbayjon xalqining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ozarbayjonlar orasida tarixiy har xil etnik guruhlar – qorapapaqlar, shoxse-venlar, qoradog'lar, afsharlar, ayrumlar, padarlar va boshqalar mavjud. Qorapapaqlar, asosan, Ozarbayjonning g'arbida, shunga yaqin bo'lgan Gruziya va Armanistonda, shuningdek, ayrim guruhleri Urmiya ko'lining (Eron) janubda, Turkiyaning shimoli-sharqidagi Kars viloyaida qo'nim topgan. «Qorapapaq» atamasi ma'nosi «qoraqalpoq» nomli etnonimga juda yaqin. Ushbu masala olimlarda bu xalqlarning kelib chiqishi bir, degan g'oya yuzaga kelgandan keyin katta qiziqish uyg'otdi. Ammo yozib olingan matnlar va qarapapaqlar tili bo'yicha dialektologik kuzatishlar, shuningdek, ushbu xalqda saqlanib qolgan urug'chilik atamaları va ularning etnografik xususiyatlari, qoraqalpoqlar bilan qorapapaqlarning etnik jihatdan o'g'uz va qipchoqlarning birikuvidan tashkil topganligi sababli, bular alohida-alohida qabila, degan xulosa chiqarishga olib keldi.

Ayni paytda, qorapapaqlar tili va kelib chiqishi bo'yicha o'zlarini ozarbayjonlar deb hisoblaydilar.

Shoxevenlar—Ozarbayjonning janubiy qismidagi Migan cho'lida va Eron Ozarbayjonining shimoli-sharqida, qoradog'lar esa Eronning shimoli-g'arbidagi tumanlarda yashaydi. Afsharlarning ko'pchilik qismi Eronda, shuningdek, Afg'onistonning Kobul va Qandog'ar shaharlari va ularga yaqin yerlardagi qishloqlarda istiqomat qiladi. Ayrimlar hozirda Ozarbayjonning g'arbiy qismida tog'lik joylarda yashaydi. Ular turkiylashgan va islom dinini qabul qilgan armanlarning bir qismi avlodlari bo'lib, VI asr oxirlarida Vizantiya atrofidagi chegaradosh hududda yashagan va ular ayrum deb nom olgan hamda Vizantiya tasarrufidagi armanlarni anglatgan. Ayrim manbalarga ko'ra, Janubiy Dog'istonda yashovchi terekemelar ozarbayjonlarning alohida bir etnik guruhga mansubdir.

Oltoylar (1948-yilgacha—oyrotlar) – Janubiy Sibirda yashaydigan xalqlar-dan biri bo'lib, ular Oltoy o'lkasidagi Tog'li Oltoy Respublikasining tub aholisidir. Oltoylarning umumiy soni 62 ming kishi bo'lib, dini – xristian. Oltoylar etnik va til xususiyatlari bo'yicha ikkita katta guruh – shimoliy va janubiyga guruhlariga ajratiladi. Shimoliy oltoylar tarkibiga tubalar, shalkanlar yoki kuu-kiji va kumandilar (ular o'zlarini «tatar-kiji» deb ataydilar) kiradi. Janubiy oltoylar eski samodiy, ket, ugor va turk qabilalarining aralashuvi natijasida shakllangan. Janubiy oltoylarga oltoyliklarning o'zlari yoki oltoy-kiji, teleñitlar va teleutlar (ular o'zlarini «payatlar» deb ataydilar) hisoblanadi. Janubiy oltoyliklar, aslida, Sayan Oltoyda yashagan qadimgi turkiy qabilalar (VI–VIII asrlar) ning ana shu yerga kelib qolgan mo'g'ul qabilalari bilan (XIII va XV–XVII asrlar) aralashuvidan vujudga kelgan.

Astraxan tatarlari – Astraxan shahri va Astraxan viloyatining bir qancha tumanlarida yashaydigan xalq bo'lib, ular o'zlarini no'g'oylar deb hisoblaydilar. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ular Astraxanning zaminini yaratgan Oltin O'rda no'g'oylari avlodlari hisoblanadi. Ular bir necha asrlar davomida tarqoq holda yashab kelyapti. Hozirda no'g'oylarning boshqa guruhlari bilan ularning aloqasi yo'q.

Balqarlar (o'zlarini «malkar» yoki «taulu» deb ataydilar) – Janubiy Kavkazda yashaydigan turkiy xalqlardan biri. Ular, asosan, Qabardin-Balqar Respublikasining janubida va janubi-g'arbidagi hududlarda yashaydilar. Ularning umumiy soni 69 ming kishi. Dini—musulmon (sunniylar).

Balqar xalqi mahalliy qavmlarning boshqa yerlardan kelgan eroniy tilli alanlar va turkiy qavmlar (bulgarlar, qipchoqlar) bilan chatishuvi natijasida paydo bo'lgan.

Boshqirdlar – Ural bo'yida yashovchi turkiy xalq bo'lib, Boshqirdiston Respublikasining tub aholisini tashkil qiladi. Ularning ayrim guruhlar Rossiyaning Chelyabinsk, Perm, Orenburg, Qo'rg'on, Yekaterinburg, Samara va Saratov viloyatlarida yashaydi. Boshqirdlarning umumiy miqdori–1 mln. 45 ming kishi bo'lib, dini– musulmon (sunnilar). Boshqird xalqi vujudga kelishining qadimgi bosqichida mahalliy eroniy tildagi sarmatlar va fin-ugor qavmlarining eramiz boshlarida Ural bo'ylariga kelgan ko'chmanchi turkiy qavmlar bilan o'zaro harakat qilishi va chatishuvi bilan izohlanadi. Shundan keyingi davrlarda boshqirdlarning etnogenizida o'g'uz-pecheneg qavmlari, bulgarlar qipchoqlar (XI–XIII asrlar), shuningdek, mo'g'ullarning ayrim guruhlar ham (XIII–XIV asrlar) ishtirok etgan. Alohida xalq sifatida boshqirdlar XVI asrda vujudga kelgan.

Bulgarlar – VII asr oxirlari VIII asrning boshlarida Volga va Kama bo'y-larida vujudga kelgan Bulgar mamlakatining asosiy xalqi bo'lib, ushbu davlat Sharqiy Yevropaning iqtisodiy va siyosiy hayotida muayyan rol o'ynagan. Bulgar podshoqligi 1236-yilda qulagandan keyin, u Oltin O'rda (sharqiy adabiyotlarda– Juchi ulusi yoki Ko'k O'rda) qavmi tarkibiga kirgan.

Gagauzlarning ko'pchilik qismi hozirda Moldovaning janubiy tumanlari– Komrat, Chadir-Lung, Vulkanesht, bir bo'lagi Ukrainaning Odessa viloyatining janubi-g'arbiy tumanlarida, shuningdek, ayrim guruhlar O'rta Osiyo va Qozog'iston hududlarida (bu yerlarga gagauzlar XX asr boshlarida kirib kelgan), Bolgariyaning shimoli-sharqiy tumanlarida ham yashaydi. Ularning umumiy soni 195 ming kishi. Dini – xristian. Tarixiy-etnografik ma'lumolariga qaraganda, gagauzlar Bolqon yarim orolida yashagan ko'chmanchi turkiy qavmlar (pecheneglar, uzlar, kumanlar) avlodlari hisoblanadi.

Qarluqlar – IX asrning birinchi yarmida Sharqiy va G'arbiy Turkiston hududida vujudga kelgan qoraxoniylar mamlakatining asosiy qavmiy birlashmasi. Ular Yettisuv, Farg'ona, Shosh (Toshkent vohasi), Toxariston va Zarafshon havzasida yashagan va o'zbek xalqining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Xajarlar – Eronning Gurgan, Mozandaron va Xuroson hududlarida yashaydigan turkiy xalq. Xajarlar sulolasi Eronda 1791-yildan 1925-

yilgacha hukm surgan. So'ngra uning o'rnini Pahlaviylar sulolasi egallaydi. Xajarlarning umumiy soni 30 ming kishi.

Qozoqlar – Qozog'istonning asosiy aholisi bo'lib, ularning ayrim guruhlarini O'zbekiston va Turkmanistonda, Orenburg va Chelyabinsk viloyatlarida, shuningdek, Xitoyning Shinjon-Uyg'ur muxtor tumanida (930 ming), Mo'g'ulistonda (96 ming), Afg'onistonda (5 ming) yashaydi. Qozoqlarning umumiy soni 8 mln. 230 ming kishidan iborat. Dini – musulmon (sunniylar). Hozirgi qozoqlarni avvallari (1920-yilgacha) «qirg'izlar», «qirg'iz-qaysaqlar», «qaysaq-qirg'izlar», qozoq-qirg'izlar» deb nomlaganlar. Qozoqlarning bunday ko'p atamalar bilan nomlanishi rasmiy hujjatlarda qozoqlarni qo'shni Sibirdagi rus kazaklaridan ajratib ko'rsatish bilan izohlanadi. Qozoq xalqining vujudga kelishida ko'pgina qadimgi qavmlar ishtirok etgan. Eramizning boshlarida hozirgi Qozog'iston hududida saklar, usunlar, Qangyuy qabila qavmlari, alanlar va boshqa urug'lar yashab kelgan. VI – VII asrlarda bu yerga Sharqiy turkiy xoqonlik tarkibiga kirgan har xil turkiy qavmlar-turgashlar, qarluqlar, so'ngra, VIII – XI asrlarda kimaklar, qipchoqlar va o'g'uzlar ko'plab kirib kela boshlagan. Ular qozoq xalqining shakllanishida muayyan rol o'ynagan. Qozoqlar XV asr oxiri XVI asr boshida Qozoq xonligining tarkibida alohida xalq bo'lib shakllandi. Ana shundan Qozoq xonligi Ulli juz (Jetisuv), O'rta juz (Markaziy Qozog'iston) va Kichik juz (G'arbiy Qozog'iston) tarzida uchga ajratilgan. Bu holat XVIII asr oxiri XIX asr boshlarigacha davom etgan.

Qarayimlar- hozirda Litva Respublikasida, ayniqsa, uning Trakay va Panevejis shaharlarida va Vilnyus atrofida, shuningdek, Ukrainaning janubida (Lutsk, Galich), Qrim (Evpatoriya, Boqchasaroy, Sevastopol, Simferopol) da yashaydi. Ular o'zlarining «karay, karaylar» (karani eski yahudiycha «o'quv» deb ataydilar. Qarayimlarning umumiy soni 3 ming 300 kishi. Dini–iudaizm. Qarayimlar Xazar xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy qavmlarning avlodlari hisoblanadi. Xoqonlik X asrda Kiev knyazlari tomonidan qulatilgandan keyin, qarayimlar Qrimda manzil topgan. XIV asr oxirida qarayimlar bir qismi hozirgi manzili Litva va Ukrainaning g'arbiy tumanlariga ko'chirilgan.

Qoraqalpoqlar–O'zbekiston tarkibidagi mustaqil Qoraqalpog'istonning asosiy aholisini tashkil qiladi. Umumiy soni 360 ming kishidan iborat.

Qoraqalpoq xalqining shakllanishi eramizgacha bo'lgan VII – II asrlarda Orol bo'yida yashagan sak-massaget qabilalaridan boshlanadi. VI asrdan boshlab, Sharqiy turkiy xoqonlikning vujudga kelishi va Orol

bo'ylarida uning tarkibiga kirishi munosabati bilan bu hududga turkiy qavmlar kela boshlagan. VIII – XI asrlarda Orol va Kaspiy bo'ylarining o'g'uz va pecheneg qabilalari egallagan. Ular qoraqalpoq xalqining shakllanishida o'rta asrdagi asosiy komponentlar hisoblangan. So'ngra, XI asr o'rtalarida Orol bo'yidagi kimak qavmli birlashmaga mansub qipchoqlar va shundan keyingi davrlarda no'g'oylar qoraqalpoq xalqining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Qoraqalpoqlar xalq sifatida XV – XVI arlarda Orolning sharqiy oqimi (Sirdaryoning quyi oqimi) da vujudga kelgan. Biroq XIX asr boshlarida ularning ko'pchiligi Amudaryo bo'ylariga ko'chirilgan. Dini-musulmon (sunniylar).

Qorachoylar – Janubiy Kavkazda yashovchi turkiy xalqlardan biri. Ular asosan, Stavropol o'lkasining Qorachoy-Cherkes viloyatining tog'li tumanlarida yashaydi. Umumiy soni 140 miñ kishidan iborat. Dini – musulmon (sunniylar). Qorachoy xalqining shakllanishida yerli qavmlar bilan birga qipchoq va bulg'or qavmlari, shuningdek, eroniy tilli alanlar ham muhim rol o'ynagan.

Qumiqlar – Janubiy Kavkazda yashovchi turkiy xalqlardan biri. Ular Dog'iston Respublikasining Boboyurt, Xasavyurt, Qizilyurt, Buynaq, Qoyakent va Qoytog' tumanlarida, shuningdek, Chechen, Ingush va Janubiy Osetin Respublikalarida yashaydi. Qumiqlarning umumiy soni 255 ming kishi. Dini – musulmon (sunniylar). Qumiqlarning vujudga kelishida hozirgi Dog'iston va Chechen, Ingush hududlarida yashagan mahalliy xalqlar bilan mana shu yerlarga kelgan turkiy qavmlar (ayniqsa, qipchoqlar) asosiy komponentlar sifatida ishtirok etdi. Qumiqlar alohida xalq bo'lib XV–XVI asrlarda shakllangan.

Qipchoqlar – rus solnomalarida polovetslar, arab va forsiy adabiyotlarda qipchoqlar, vizantiya va lotin manbalarida kumanlar yoki komanlar atamasi bilan atalgan o'rta asrdagi turkiy qavm. Qipchoqlar Irtish havzasida yashagan kimiklarning g'arbiy shaxobchasidan bo'lib, X–XI asrlarda g'arbiy va markaziy Qozog'istonda bir qancha qabilani tuzgan. VIII va IX asrlarda qipchoq-kimik qavmlari Ural tog'i tizimlari orqasida yashagan, X asrda ularning ayrim guruhlar Volganing orqa tomonini birato'la egallaydi. Qipchoqlarning boshqa qismi Orolning shimoliy va shimoli-g'arbiy bo'ylarini egallaydi. Qipchoqlar bosib olgandan keyin Janubiy Rus dashtlarining katta hududi – Dneprdan Volganing sharqigacha XI asrdan XV asrgacha arab va forsiy adabiyotlarda «Dashti qipchoq», ya'ni «Qipchoqlarning dashti» deb ataladi. Qipchoqlar 170 yil davomida (1223 – yilgacha) Janubiy Rus hamda Qozog'iston cho'llarini egallab turgan. Ular hozirgi tatar,

boshqurd, no'g'oy, qorachoy, qarayim, balqar, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq hamda qirg'iz xalqlarining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Qirg'izlar – O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning biri bo'lib, Qirg'iziston Respublikasining asosiy xalqini tashkil etadi. Ularning ayrim guruhlar O'zbekiston hamda Tojikistonda, shuningdek, Xitoyning janubiy g'arbidagi tog'li tumanlarda (115 ming kishi), Afg'onistonda (10 ming kishi) yashaydi. Qirg'izlarning umumiy soni 2 mln. 280 ming kishi. Dini – musulmon (sunniylar). Hozirgi qirg'izlar avvallari (1917-yilgacha) «qora-qirg'izlar», «bulutlar» deb nomlangan. Qirg'izlarning etnogenezi qadimgi xun, dinlin, sak, usun qabilalari bilan bog'liqdir. So'ngra qirg'iz xalqi tarkibiga mahalliy turkiy va eroniy tilli qavmlar, qarluqlar, uyg'urlar, keyinchalik mo'g'ul qavmlari, XVI–XVII asrlarda esa ayrim qozoq-no'g'oy qavmlari kirgan. Qirg'izlar alohida xalq bo'lib XVI asr boshida Tyanshanda vujudga kelgan.

Qrim tatarlari – avval Qrimda yashagan, hozirda O'zbekitonda hamda Qozog'istonda ham yashaydi. Ayni paytda, qrim tatarlarining ko'pchiligi hozirgi Qrimga ko'chib borganlar. Qrim tatarlarining etnik xalq sifatida tarixda XV asrda vujudga kelgan. Bunda Qrim xonligining ahamiyati katta bo'lgan. O'sha davrda qrim tatarlari alohida xalq sifatida shakllangan edi.

Qirimchaqlar – yahudiylarning XIV–XV asrlarda Qrim xonligi hududida paydo bo'lgan turkiy tilli subetnik guruhi. Qirimchaqlarning ko'pchilik qismi hozirda Simferopol, Novorossiysk hamda Suxumida yashaydi.

No'g'oylar – Janubiy Kavkazda yashovchi turkiy xalqlarning biri bo'lib, ular, asosan, Qorachoy-Cherkesiyada, ayrimlari Janubiy Dog'istonda, Stavropol o'lkasida, shuningdek, Chechenistonda, Ingushetiyada yashaydi. Umumiy soni 65 ming kishidan iborat. Dini– musulmon (sunniylar). No'g'oylar Oltin o'rda tuman begligining No'g'oy ulusiga mansub bo'lgan turli turkiy hamda mo'g'ul qavmlari avlodlaridan hisoblanadi. No'g'oylar avval qorano'g'oylar, oqno'g'oylar hamda kuban no'g'oylaridan tashkil topgan bo'lib, 3 ta etnik guruhga bo'lingan.

O'g'uzlar – o'rta asrda yashagan turkiy qabila. VIII asrda turkiy xoqonlik qulagandan so'ng, uning o'rnini uyg'urlar bilan qoraxoniylar egallaydi. Shundan keyin o'g'uzlarning ko'pgina qavmlari kunchiqardan g'arbga tomon siljiydi. Ko'pchilik o'g'uz qavmlari bo'linib, ularning bir qismi O'rta Osiyoga keladi.

O'guzlarning asosiy ko'pchiligi Orolbo'yi dashtlarida yashab, ular boshchiligida bir necha qabila urug'lari tarkib topgan. IX asrda

o'g'uzlarning ko'pchilik qismi Sirdaryoning o'rta va quyi oqimida hamda Ustyurtning janubga cho'zilgan cho'llarida, Emba va Yoyiq oralig'ida yashagan. O'g'uzlarning bir qismi–o'g'uz saljuqlar Eron hamda Kichik Osiyo orqali o'tib, dastlab, Saljuqlar qavmini, so'ngra Usmon imperiyasini tuzadi. Boshqa bir qismi Ural hamda Volga daryolaridan o'tib, Sharqiy Yevropaga ketgan. O'g'uzlar hozirgi ozarbayjon, gagauz, turk hamda turkman xalqlarining shakllanishda, shuningdek, Xorazm o'zbeklari va qoraqalpoqlarning etnogenizida ham muayyan rol o'ynagan.

O'zbeklar – O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlardan biri. Ular O'zbekiston Respublikasining asosiy aholisi hisoblanadi. O'zbeklarning bir qismi Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston, Saudiya Arabistonida, Xitoy, Rossiyada yashaydi. Ularning umumiy soni 30 mln. kishidan oshadi. Dini–musulmon (sunniylar). O'zbek xalqi O'rta Osiyoda yashab kelayotgan qadimgi sug'd, sak, massaget, qangyuy, xorazmiy hamda boshqa etnik guruhlariga keyingi davrlarda qo'shilgan turkiy qabila va urug'larning birikuvi natijasida vujudga kelgan. Uning shakllanishi XIII–XIV asrlarda to'la tugallangan. Taxminan o'sha davrlardan boshlab «o'zbek» etnonimi shularga nisbatan qo'llaniladigan bo'lgan.

Pecheneglar – o'rta asrlarda yashagan turkiy qavmlardan biri. Ularning bir qismi VIII hamda IX asrlarda Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida, Orolning janubi-sharqida va janubi-g'arbida, shuningdek, Yoyiq va Emba oralig'ida manzil topgan. Pecheneglarning boshqa qismi IX asr boshida Yoyiq bilan Volga oralig'ida yashagan. Bu davrda pecheneglar Sharqiy va G'arbiy Yevropa xalqlari siyosiy hayotida katta rol o'ynagan. Ushbu voqealar munosabati bilan rus solnomalarida pecheneglar ilk bora 915-yilda tilga olinadi. Pecheneglarning o'sha ikki guruhining vujudga kelishi munosabati bilan, tarixiy adabiyotlarda ular «sharqiy» va «g'arbiy pecheneglar» yoki «turkiy» va «xazar pecheneglar» deb nomlana boshlagan. Rus solnomachilari pecheneglari «pecheneglar», G'arbiy Yevropa va Vizantiya xronikalarida «patsinaklar», arab mualliflari «bajnak», turkiycha esa ularni «bajanaklar» deb atagan. Pecheneglar qadimda kangar degan nom bilan ma'lum bo'lgan. Tarixchi olimlarning fikricha, o'g'uzlar bilan mustahkam aloqada bo'lgan sharqiy pecheneglar o'rta asrlarda qoraqalpoqlarning shakllanishida asosiy etnik zamin rolini o'tagan.

Salarlar – Xitoyda Sinxay va Gansu viloyatlaridagi Xuanxe daryosining janubiy qirg'og'ida yashaydi. Ularning umumiy miqdori 71 ming kishi. Dini– musulmon (sunniylar). Salar xalqi tarixan sañur-salur-

solor-salir qavmi bilan aloqador. Ushbu qavm Mahmud Koshg'ariy, Rashididdin va Abulg'oziyning asarlarida o'g'uzlar-ning bir urug'i sifatida tilga olinadi. «Salir» etnonimi hozirda turkman xalqi tarki-bida saqlanib qolgan (Turkmanistonning Mari hamda Saraxs tumanlari). Salirlar Xitoyga XIV asr oxirida Samarqanddan ko'chib borgan.

Sariq uyg'urlar – Xitoyda Gansu viloyatida yashovchi yuygularning bir qismi. Yuygular til xususiyatlariga ko'ra to'rtga ajratilib, bir qismi turkiy tilda, ikkinchisi mo'g'ul tilida, uchinchisi xitoy, to'rtinchisi esa tibet tilida gaplashadi. Turkiy tilda so'zlashuvchilar o'zlarini «sarig' yugur» deb ataydilar. Sariq uyg'urlarning umumiy soni 11 ming kishi. Ular turkiy xalqlar ichida buddizmga ishonuvchilar hisoblanadi.

Sibir tatarlari – Sibirda yashovchi turkiy xalqlardan biri bo'lib, ular, asosan, Tumen, Omsk, Novosibirsk, Tomsk viloyatlarida yashaydi. Sibir tatarlari-ning umumiy soni 100 ming kishi. Dini–musulmon (sunniylar).Sibir tatarlarining vujudga kelishida o'rta asrdagi qipchoqlar, keyinchalik, buxoroliklar (buxoroliklar – XVI–XVIII asrlarda O'rta Osiyodan G'arbiy Sibirda ko'chib kelgan o'zbeklar, tojiklar, uyg'urlar hamda ayrim boshqa xalqlarning umumiy nomi) va Volgabo'yi tatarlarining asosiy qismi bo'lgan. Hozirda ular alohida xalq hisoblanadi.

Tatarlar (Volga tatarlari yoki Qozon tatarlari) – O'rta Volga va Ural bo'ylarida yashovchi turkiy xalq. Ular Tatariston Respublikasining asosiy aholisini tashkil qiladi. Bir qismi Boshqirdstonning janubi-g'arbida, Chelyabinsk, Perm Yekaterinburg, Orenburg, Astraxan viloyatlarida, G'arbiy Sibirda, Uzoq Sharqda, O'rta Osiyo va Qozog'istonda yashaydi. Tatarlarning umumiy soni 6 mln. 560 ming kishi. Dini – musulmon (sunniylar).Tatar etnonimi ilk bora VII–IX asrlardagi turkiy runik obidalarida (to'qqiz tatar, o'tuz tatar sifatida) tilga olinadi. Mo'g'ul-tatar bosqinchilari davri (1240–1480) dan boshlab va undan keyingi yillarda Rus mamlakati bilan chegaradosh Oltin O'rda hukmronligi davrida tatar termini keng tarqalgan edi. «Tatar» termini bilan Rossiyaga chegaradosh bo'lgan ko'pgina turkiy tilli boshqa xalqlar ham nomlangan.Volga tatarlari xalqi tarkibiga qozon tatarlari va astraxan tatarlari, misharlarning katta qismi kiradi. Sibir tatarlari yozma hisob bo'yicha Volga tatarlariga kiritilsa-da, volga tatarlarining shakllanish davrida yoki bu xalqning rivojlanishi vaqtida ularga yaqindan qo'shilmagan, sababi ular hududiy jihatdan uzoqda bo'lib, kelib chiqishi bo'yicha yaqin qarindosh bo'lmagan. Sibir hamda Volga tatarlarini

tarixiy jihatdan lingvistik planda ham bir-biriga yaqin, deb hisoblash mumkin emas.

Tofalar (avvalgi nomi – karagaslar)- Sibirda, Irkutsk viloyatining Quyi Ude tumanida yashaydi. Tofalar turkiy xalqlar ichidagi eng oz sonlisi bo‘lib, ularning soni 800 kishi. Dini – xristian. Tofalar etnogenizida XIX asr boshidagi turkiylashgan samodiy qabila-urug‘ guruhlarini asosiy substrat komponent sanaladi.

Truxmenlar–turkmanlarning janubiy Kavkazdagi Stavropol o‘lkasining sharqiy va janubiy tumanlarida yashovchi etnik guruhi.

Tuvalar (ular o‘zlarining «tivi-kiji», «tivalar» deb ataydi) – Sibirda yashovchi turkiy xalqlarning biri. Ular Tuva Respublikasining asosiy aholisini tashkil etadi. Umumiy soni 180 ming kishi. Ular lamaizm diniga sig‘inadi. Hozirgi tuvalarni avvallari soyotlar, soyonlar, uryanxaylar, tannu-tuvalar deb ataganlar. Tuvalar XVIII asr oxiri XIX asr boshida xalq bo‘lib shakllangan.

Turklar – Turkiyaning asosiy aholisini tashkil qiladi. Umumiy soni 52 mln. kishi. Dini – musulmon (shiytlar).Turklarning ota-bobolari O‘rta Osiyodan chiqqan. Ammo ular Kichik Osiyo hududidagi mahalliy grek, kurd, arman, gruzin hamda boshqa xalqlarning XI–XIII asrlarda O‘rta Osiyodan ko‘chib kelgan turkiy (o‘g‘uz) qabilalari bilan aralashuvdan vujudga kelgan.Turklar orasida qizilboshlar o‘zlarining bir qancha madaniy o‘ziga xoslik-lari bilan alohida o‘rin egallaydi. Sefeviylar shayx Haydar (1460–1488) ozarbayjon qavmlari boshchiliriga o‘n ikki qizil chizig‘i (12 shayt imom hurmatiga) bar salla tortib yurishini qabul qilgandan keyin ular qizilboshlar deb nom olgan.

Turkmanlar – O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlardan biri. Ular Turkmaniston aholisining asosiy qismini tashkil etadi. Turkmanlar O‘zbekiston va Tojikistonda, Janubiy Kavkazda, Astraxan viloyatida, shuningdek, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Turkiyada va Sibirida yashaydi. Umumiy soni 3 mln. 660 ming kishi. Dini – musulmon (sunniylar).Turkmanlarning etnogenizida qadimgi sak-massaget va sarmat-alan qavmlari, shuningdek, qadimgi Marg‘iyona, Parfiya, Xorazm mamlakatlari aholisi ishtirok etgan. So‘ngra IX–XI asrlarda hozirgi Turkmaniston hududiga o‘g‘uzlar ko‘plab kela boshlagan. Ular turkman xalqining shakllanishida asosiy komponent rolini o‘tagan. Turkmanlar alohida xalq sifatida XV asrda paydo bo‘lgan.

Uyg‘urlar – Markaziy Osiyodagi qadimiy xalqlarining biri. Ular hozirgi paytda Xitoyda Shinjon-Uyg‘ur muxtor tumanining asosiy aholisi hisoblanadi. Uyg‘urlarning bir qismi Qozog‘istonda (Olmaota va

Toldiqo'rg'on viloyatlarida), O'zbekistonda (Farg'ona viloyati) yashaydi. Ularning umumiy soni 6 mln. 360 ming kishi. Dini – musulmon (sunniylar).Uyg'ur xalqining shakllanish jarayoni, asosan, Sharqiy Turkiston hududida bir necha ming yillar davom etgan. XIV asrga kelib, bu jarayon nihoyasiga yetdi. Uyg'ur xalqi negizini mahalliy eron tilli qavmlar, qadimgi uyg'ur va ayrim boshqa turkiy tilli qavmlar tashkil etgan. Uyg'ur etnonimi VII–IX asrlardagi qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan ma'lum. Ammo, taxminan, XV asrdan keyin bu etnonim iste'moldan chiqib, uning o'rniga uyg'urlarning yashaydigan joyiga qarab: koshg'arlik, turpanlik, oqsuvlik va boshqa nomlar ishlatilgan. 1921-yili Olmaotada uyg'ur ziyolilari vakillarining qurultiyida uyg'ur atamasi barcha uyg'ur xalqining umumiy atamasi sifatida qayta tiklanadi.

Urumlar (rum – «anatoliyalik grek») – Ukrainaning Donesk viloyatida yashovchi turkiy tilli xalq. Ular avval Qrimda yashagan. Yekaterina Ikkinchining farmoni bilan 1779-yilda Qrimning Janubiy Azov bo'yiga ko'chirilgan. Dini –xristian.

Xazarlar – turkiy va boshqa ko'pgina qavmlarni o'ziga birlashtirgan Shar-qiy Yevropadagi ikki yirik o'rta asr siyosiy birlashmalarining bittasi bo'lgan Xazar xoqonligining asosiy xalqi. Xazar xoqonligi VII asrdan X asrgacha hukm surgan. O'sha paytda xoqonlik Sharqiy Yevropaning katta hududida hukmronlik qilgan (Xazar xoqonligi poytaxti VIII asr boshigacha Samandar shahri (Edil va Darbant oralig'ida, keyinchalik Volganing quyi oqimi Itil shahri bo'lgan) va ko'pchilik xalqlar bo'lib kelgan. X asr o'rtalarida Xazar xoqonligi hukmronlik roli asta-sekin Rus mamlakatiga o'ta boshladi. Xazarlar o'zlarini Turkiy xoqonlikning haqiqiy vorisi deb hisoblab, mamlakatni boshqargan kishini xoqon (qag'an), mamlakatni esa xoqonlik deb nomlagan.

Xakaslar – Sibirda yashovchi turkiy xalqlardan biri. Ular Xakasiyaning asosiy aholisini tashkil qiladi. Xakaslarining umumiy soni 73 ming kishi. Dini – xristian.

Alohida xalq sifatida XIX–XX asrlar oralig'ida vujudga kelgan.

Chyornie klobukilar – Janubiy Rusda va Volga, Ural bo'ylarida yashagan o'rta asrlardagi turkiy qavm. «Chyornie klobukiler» atamasi XII asrdagi pecheneg-o'g'uz qavmlarining (pecheneglar, uzlar, torklar, berendiler, kovuylar, kalpichlar, boutlar) umumiy atamasi hisoblanadi. Bu qavmlar Janubiy Rus yerlarida manzil topib, Kiev Rusi xalqining tarkibiga kirib ketgan.

Chuvashlar – O'rta Volga bo'yida yashaydi. Ular Chuvash Respublikasi-ning asosiy aholisini tashkil etadi. Chuvashlarning umumiy

soni 1 mln. 780 ming kishi. Dini–xristian.Chuvash xalqi X asrda Bulg‘ar mamlakati tarkibida boshlangan va XV asrda hozirgi Chuvash Respublikasi hududida alohida xalq bo‘lib shakllandi.

Chulim tatarlari (chulim turklari) – Sibirda Ob daryosining o‘ng tarmog‘i Chulim daryosi bo‘ylarida yashovchi turkiy xalq. Chulim turkiylarining vujudga kelishida turkiy qavmlar va mahalliy samodiy, ket substrat komponenti muayyan rol o‘ynagan.

Shorlar (o‘zlarini «shor-kiji» deb ataydi) -Sibirda Kemerevo viloyatining janubidagi Tom daryosining Kondoma va Mrassu tarmoqlari bo‘ylarida yashaydi. Shorlarning umumiy soni 16 ming kishi. Ular xristian diniga e‘tiqod qiladi.Hozirgi shorlarning avval «shorlar», «mrassu va kondoma atarlari», «kondo-malilar», «mrassulilar», «kuznes tatarlari» deb nomlaganlar. XX asrning 20-yillaridan boshlab «shor» termini Tom daryosi bo‘yida yashovchi barcha turkiy xalqlarga nibatan ishlatiladigan bo‘ldi. Shorlar qadimgi ugor, samodiy va ket qavmlarining turkiylashgan avlodlari hisoblanadi.

Yoqutlar (o‘zlarini «saxa» deb ataydi)–Sibirda yashovchi turkiy xalqlardan biri. Ular Yoqutiston Respublikasining asosiy aholisini tashkil etadi. Umumiy soni 345 ming kishi. Dini – xristian.

Yoqutlarning ota-bobolari VII–VIII asrdagi o‘rxun yodnomalarida tilga olingan quriqanlar bo‘lgan. Ular VI–X asrlarda Baykal yoqasida, Angaraga va Lenaning yuqori oqimida yashagan. Keyinchalik, XI asr boshida ular mo‘g‘ul qavmlari tazyiqiga uchrab, Lena buyiga ko‘chishga majbur bo‘lgan.

Xulosa.

XI-XIII asrlarda O‘g‘uzlar etnonimi O‘rta Osiyo va Eronda turkman, yaqin Sharqda esa turk etnonimi bilan almashgan. O‘g‘uzlar turkman, Ozarbayjon, turk hamda gagauz va qoraqalpoqlar etnogenezida muhim rol o‘ynagan. O‘g‘uzlarning epik asarlari («Kitobi dadam Qo‘rqut», «O‘g‘uznoma») saqlanib qolgan.

Turkiy urug‘lar va qabilalarning shakllanishi bir necha eposlarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Alpomish”, “O‘g‘uznoma”, «Qo‘rqut ota kitobi», “Manas”, «Maaday Qora» kabi eposlar shunday xususiyatga ega. Bu dostonlarda turkiylarning donishmand oqsoqoli yoki urug‘ boshlig‘i obrazi yaratilgan bo‘lib, ular urug‘larni birlashtirish, ahilligini ta‘minlash, ruhlantirishdek ulug‘ maqsad bilan yashaydilar. Qabilalarning shakllanish davrini aks ettirgan eposlar bizning zamonamizda turli millat folklorshunoslari tomonidan tiklangan yoki ular turli xalqlar adabiyotiga

nisbat berilishidan qat'i nazar ular barcha turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beruniy.(1968). Tanlangan asarlar.1-tom.Fan
2. Mallaev N.M.(1968). O‘zbek adabiyoti tarixi.Fan
3. Снесарёв Г.П.(1969). Реликты домусульманских верований и обрядов узбеков Хорезма. Наука
4. 10. Tolstov S.P.(2014) Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. Yangi asr avlodi.
5. Гундогдиев О.(2001).Огузи, туркмени и Россия. Исторический очерк.Рух.
6. Беляева С., Бубенок О, Гундогдиев О., Дрига И., Маврина О. (2018).Огузи на рубежах Южной Руси. Киев
7. Дурдиев М.(1991). Туркмени. Харп
8. Sharaf al-zaman Tahir al-Marvazi on China, The Turks and India. (1942).Arabic text (circa A.D. 1120) with an English translation and commentary by V. Minorsky. The Royal Asiatic Society.
9. Sümer, F. (1997). Türk cumhuriyetlerini meydana getiren eller ve Türk destanları. Ders Kitapları Anonim Şirketi.
10. Şeşen, R.(2001). Islam coğrafyacılara göre türkler ve türk ülkeleri. Türk Tarih Kurumu Basımevi.Remzi.
11. Ковалевский А.П.(1956) Книга Ахмеда ибн Фадлан о его путешествии на Волгу в 921-922 гг. Харьков.
12. Ибн аль-Асир.(2006). Аль-Камиль фи-т-тарих. Полный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии Булгакова П.Г. Дополнения к переводам, замечаниям и комментариям, введения и индикатору Камолиддина Ш.С.Узбекистан.
13. Материалы по истории турецких народов Центральной Азии (Извлечения из источников). (2003). Наука.
14. Nasirillayeva N.(2022).Al-Ma’sudiyning “Muruj az-Zahab” asari.Theoretical Aspects in the formation of pedagogical Science,1 (5).<https://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/1206>.
15. Ismailov, G. Anthropocentrism In Phraseological Picture Of World (On The Example Of Uzbek, Kazakh And Karakalpak Languages). *中国湖州* 2022 № 4 (13), 137.